

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
QONUNI

**ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINING TARQATILISHINI HAMDA
ISTE’MOL QILINISHINI CHEKLASH TO‘G‘RISIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 25-oktabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2022-yil 27-dekabrda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va qo‘llanilish sohasi

Ushbu Qonunning maqsadi alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonun fuqarolarning, eng avvalo, yigirma bir yoshga to‘lmagan shaxslarning sog‘lig‘ini alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishning zararli ta’siridan, bu bilan bog‘liq ijtimoiy va boshqa salbiy oqibatlardan himoya qilishga, shuningdek jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda qaror toptirish uchun tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgandir.

Ushbu Qonunning amal qilishi:

alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste’mol qilish moslamalarini jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik maqsadlarda ishlatish niyatisiz o‘z ehtiyojlari uchun olib kirishga;

alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste’mol qilish moslamalarini ko‘rgazmaviy namunalar va sinovlar uchun namunalar sifatida yuridik shaxslar tomonidan olib kirishga;

eksportga realizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan yoki O‘zbekiston Respublikasining hududi orqali tranzit tarzida o‘tadigan alkogol va tamaki mahsulotlariga, tamakini hamda nikotinni iste’mol qilish moslamalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risidagi qonunchilik

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste’mol qilish moslamalarining aylanishi — alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste’mol qilish moslamalarini olib kirish (import qilish), olib chiqish (eksport qilish), ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish, realizatsiya qilish;

alkogol va tamaki mahsulotlari, tamakini hamda nikotinni iste’mol qilish moslamalarining ulgurji savdosi — alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste’mol qilish moslamalarini keyinchalik sotish uchun yetkazib berish;

alkogol va tamaki mahsulotlari, tamakini hamda nikotinni iste’mol qilish moslamalarining chakana savdosi — alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste’mol qilish moslamalarini ushbu mahsulotlardan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz iste’molchiga realizatsiya qilish;

alkogol mahsulotlari — oziq-ovqat xomashyosidan olingan etil spirtidan va (yoki) tarkibida spirt bo'lgan oziq-ovqat mahsulotidan foydalangan yoki foydalanmagan holda ishlab chiqarilgan, tarkibida etil spirtining hajmiy ulushi bir yarim foizdan yuqori bo'lgan oziq-ovqat mahsuloti;

alkogolga qaramlik — alkogol mahsulotiga patologik ruju qo'yish, alkogoldan surunkali zaharlanishning psixosomatik (ruhiy va jismoniy) hamda ijtimoiy oqibatlari bilan tavsiflanadigan surunkali kuchayib boruvchi kasallik (surunkali alkogolizm);

atrofdagi tamaki tutuni — tamaki mahsuloti chekilayotgan yoki oldinroq chekilgan joyning atmosfera havosidagi tarkibida nikotin mavjud bo'lgan aerosol (bug', tutun);

jamoat joylarida alkogol va tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanishni cheklash bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan shaxslar — tasarrufida (mulkida, egaligida, foydalanishida) jamoat joylarida joylashgan hududlar, binolar (xonalar), inshootlar va boshqa obyektlar, shuningdek jamoat transporti bo'lgan jismoniy shaxslar va (yoki) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar;

ko'chma savdo — tovarlarning statsionar savdo obyektlaridan tashqarida, shu jumladan ko'chma savdo obyektlaridan (do'konchalardan, peshtaxtalardan, chodirlardan, avtodo'konlardan va boshqalardan) foydalangan holdagi chakana savdosi;

nikotin — tamakining barglari va poyalari tarkibida mavjud bo'lgan yoki sintez yo'li bilan olingan alkaloid;

nikotin yetkazib berishning elektron tizimlari — elektr toki (akkumulyator) yordamida nikotinli yoki nikotinsiz suyuqlikni (kartrijlarda, rezervuarlarda va boshqa konteynerlarda) qizdiradigan hamda iste'molchi tomonidan nafas orqali yutiladigan aerosol (bug', tutun) hosil qiladigan, ko'p marta ishlatiladigan moslamalar (bundan tibbiy asbob-uskunalar va tibbiy buyumlar mustasno);

nikotinli snyus — so'rish (shimish) uchun mo'ljallangan, o'simlik xomashyosidan va nikotindan yoki uning hosilalaridan, jumladan nikotin tuzlaridan (bundan tamaki bargi va (yoki) tamaki o'simligining boshqa qismi, shu jumladan tozalangan tamaki changi va (yoki) kesilgan tamaki bargining mayda zarralari mustasno) tayyorlangan, chekilmaydigan, tarkibida nikotin mavjud bo'lgan, boshqa ingrediyentlar qo'shilgan yoki qo'shilmagan mahsulot turi;

nikotinli suyuqlik — tarkibida nikotin miqdori 0,1 mg/ml hajmdan kam bo'lmagan, tamakini va nikotinni iste'mol qilish moslamalarida foydalanish uchun mo'ljallangan har qanday suyuqlik;

nikotinsiz suyuqlik — tarkibida nikotin bo'lmagan yoki tarkibida nikotin miqdori 0,1 mg/ml hajmdan kam bo'lgan, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarida foydalanish uchun mo'ljallangan suyuqlik;

nosvoy — shimish uchun mo'ljallangan hamda tamakidan va tamakisiz xomashyodan (ishqordan, ohakdan, bo'rdan) tayyorlangan chekilmaydigan tamaki mahsulotining turi;

tamaki — tamaki mahsulotini ishlab chiqarish uchun xomashyo olish maqsadida yetishtiriladigan, *Nicotiana Tabacum* va *Nicotiana Rustica* turlariga tegishli ituzumdoshlar oilasiga mansub bo'lgan *Nicotiana* navidagi o'simlik;

tamaki mahsulotining bloki — tamaki mahsulotlarining muayyan miqdordagi iste'mol o'rovlarini (qutilarini) o'z ichiga olgan guruhli iste'mol idishi birligi;

tamaki mahsulotining va tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamasining iste'mol o'rovi (qutisi) — tamaki mahsulotini va (yoki) tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamasini bevosita joylash va uni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan, transportda tashish va saqlashning tayyorlovchi tomonidan belgilangan shartlariga rioya etilganda kafolat muddati ichida ularning iste'mol xossalari saqlanishini ta'minlaydigan o'rov;

tamakiga (nikotinga) qaramlik (bundan buyon matnda nikotinga qaramlik deb yuritiladi) — tamaki mahsulotiga (tarkibida nikotin mavjud bo'lgan mahsulotga) patologik ruju qo'yish, nikotindan surunkali zaharlanishning psixosomatik (ruhiy va jismoniy) oqibatlari bilan tavsiflanadigan surunkali kuchayib boruvchi kasallik;

tamakili snyus — to'liq yoki qisman tamaki bargi va (yoki) tamaki o'simligining boshqa qismidan, shu jumladan tozalangan tamaki changi va (yoki) kesilgan tamakining mayda zarralaridan

ingrediyentlar qo'shilgan yoki qo'shilmagan holda tayyorlangan, so'rish (shimish) uchun mo'ljallangan chekilmaydigan tamaki mahsulotining turi;

tamakini qizdirish tizimi — qizdiriladigan tamaki mahsulotlarini chekish uchun mo'ljallangan hamda iste'molchi tomonidan nafas orqali yutilishi maqsadida nikotinli aerosol (bug', tutun) hosil qiladigan elektron moslama, shu jumladan alohida yoki birga sotilishidan qat'i nazar, bunday moslama bilan birga foydalanish uchun tayyorlangan har qanday buyum yoki qism;

tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari — tarkibida nikotin bo'lgan yoki nikotin bo'lmagan iste'molchi tomonidan nafas orqali yutiladigan aerosolni (bug'ni, tutunni) olish uchun foydalaniladigan elektron yoki boshqa asboblari (moslamalar), shu jumladan nikotin yetkazib berishning elektron tizimlari, tamakini qizdirish tizimlari, chilimlar, trubkalar, mushtuklar, shuningdek ularning tarkibiy qismlari va elementlari (bundan tibbiy asbob-uskunalar va tibbiy buyumlar mustasno);

tarkibida nikotin mavjud bo'lgan mahsulotlar — chekish, shimish, chaynash, hidlash yoki boshqacha usullarda, shu jumladan tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari yordamida iste'mol qilish uchun foydalanishga tayyorlangan, tarkibida nikotin yoki uning hosilalari, shu jumladan nikotin tuzlari, eritmalari bo'lgan mahsulotlar, nikotinli suyuqliklar yoki tarkibida nikotin mavjud bo'lgan gellar (bundan qonunchilikka muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalari va tarkibida nikotin tabiiy holda mavjud bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari mustasno);

tibbiy ogohlantirish — alkohol mahsulotining idishi yorlig'iga yoki tamaki mahsulotining hamda tamakini va nikotinni iste'mol qilish moslamasining iste'mol o'roviga (qutisiga) joylashtiriladigan alkohol yoki tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning inson sog'lig'iga salbiy ta'siri to'g'risidagi axborot;

chekilmaydigan tamaki mahsuloti — shimish, chaynash yoki hidlash uchun mo'ljallangan tamaki mahsuloti;

chilim — tamakining, shuningdek tarkibida tamaki mavjud bo'lmagan mahsulotlarning tutashi va (yoki) qizdirilishi natijasida hosil bo'ladigan aerosolni (bug'ni, tutunni) nafas orqali yutish uchun foydalaniladigan moslama bo'lib, unda aerosol (bug', tutun) suyuqlik solingan idish (chilim suvdoni) orqali o'tadi;

qizdiriladigan tamaki mahsuloti — chekiladigan tamaki mahsulotining ingrediyentlar qo'shilgan yoki qo'shilmagan tamakidan (tamaki aralashmasidan) iborat bo'lgan, tamakini qizdirish tizimlarida foydalanish uchun mo'ljallangan turi;

elektron sigareta — elektr toki (akkumulyator) yordamida moslamadagi nikotinli yoki nikotinsiz suyuqlikni qizdiradigan va iste'molchi tomonidan nafas orqali yutiladigan aerosol (bug', tutun) hosil qiladigan, bir marta ishlatiladigan moslama.

4-modda. Tamaki mahsuloti

Cekish, shu jumladan tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalangan holda chekish uchun, shuningdek shimish, chaynash, hidlash yoki boshqacha usullarda iste'mol qilish uchun xomashyo sifatida to'liq yoki qisman tamaki bargidan va (yoki) tamaki o'simligining boshqa qismlaridan tayyorlangan mahsulotlar (bundan qonunchilikka muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalari mustasno) tamaki mahsulotlaridir.

Quyidagilar tamaki mahsulotlari jumlasiga kiradi:

tarkibida xomashyo sifatidagi tamaki bargi va (yoki) tamaki o'simligining boshqa qismlari mavjud bo'lgan mahsulot. Chekiladigan mahsulotlar (papirosalar, sigaralar, sigaretalar, sigarillalar (sigaritalar), qizdiriladigan tamaki mahsulotlari, chilim uchun tamaki, ingichka qirqilgan, chekiladigan tamaki, trubka uchun tamaki) va chekilmaydigan mahsulotlar (nosvoy, tamakili snyus, hidlanadigan tamaki, chaynaladigan tamaki) shunday mahsulot bo'lishi mumkin;

tarkibida nikotin yoki nikotinning hosilalari, shu jumladan nikotin tuzlari, eritmalari, nikotinli suyuqliklar yoki tarkibida nikotinli gellar mavjud bo'lgan, lekin tamaki bargi va (yoki) tamaki o'simligining boshqa qismlari mavjud bo'lmagan mahsulot. Chekiladigan mahsulotlar (nikotin yetkazib berishning elektron tizimlari uchun nikotinli suyuqliklar, nikotin suyuqligi bo'lgan elektron sigaretalar, chilim uchun nikotinli aralashmalar) va chekilmaydigan mahsulotlar (nikotinli snyus) shunday mahsulot bo'lishi mumkin;

tarkibida tamaki va nikotin mavjud bo'lmagan, lekin tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari bilan birga foydalanish uchun mo'ljallangan mahsulot (nikotin yetkazib berishning elektron tizimlari uchun nikotinsiz suyuqliklar, nikotinsiz suyuqligi bo'lgan elektron sigaretalar, chilim uchun nikotinsiz qorishmalar).

2-bob. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish

5-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning hayotini va sog'lig'ini saqlashga, ularni alkogol va tamaki mahsulotlarining, atrofdagi tamaki tutunining salbiy ta'siridan himoya qilishga qaratilgan kompleks huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish;

fuqarolar sog'lig'ini saqlashning alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini tijorat maqsadlarida ishlab chiqarayotgan, import va realizatsiya qilayotgan shaxslarning manfaatlaridan ustuvorligini ta'minlash;

fuqarolarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga, aholi, avvalo, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga, ularning sog'lig'iga alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish bilan bog'liq xavf-xatarlarning oldini olishga va ularni kamaytirishga qaratilgan profilaktika, ma'rifiy faoliyatni tashkil etish hamda amalga oshirish;

alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining aylanishi sohasidagi davlat nazoratini ta'minlash, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirish;

alkogolga yoki nikotinga qaramlikdan aziyat chekayotgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishning samarali tizimini yaratish;

alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi, shuningdek alkogolga yoki nikotinga qaramlik diagnostikasi va uni davolash sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish;

jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda hamda alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan profilaktika, ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining keng ishtirok etishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish.

6-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat kafolatlari

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning salbiy ta'sirini profilaktika qilish maqsadida davlat:

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarkibiga, o'roviga va tamg'alanishiga oid talablarni belgilaydi hamda ularga rioya etilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan alkogol va tamaki mahsulotlarining inson hayoti va sog'lig'i uchun xavfsizligini baholash qoidalari hamda tartib-taomillarini belgilaydi, shuningdek ularga rioya etilishini ta'minlaydi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining ishlab chiqarilishi va realizatsiya qilinishini tartibga soladi, shuningdek tarkibida inson hayoti va sog'lig'i uchun zararli bo'lgan moddalar miqdori yo'l qo'yiladigan eng yuqori darajalardan oshadigan alkogol va tamaki mahsulotlarning import qilinishiga taqiq o'rnatadi;

jamoat joylarida alkogol va tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishiga, shuningdek tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanilishiga taqiq o'rnatadi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslarga realizatsiya qilishga va ushbu shaxslar tomonidan realizatsiya qilinishiga, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish jarayoniga ularni jalb etishga taqiq o'rnatadi;

qonunchilik talablariga muvofiq alkogolga yoki nikotinga qaramlikni davolashga qaratilgan tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatilishini ta'minlaydi;

aholini alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zarari, atrofdagi tamaki tutunining salbiy ta'siri to'g'risida xabardor qilishga va xabardorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuini amalga oshiradi;

alkogol va tamaki mahsulotlariga bo'lgan talabni kamaytirishga qaratilgan narxga va soliqqa oid choralarni ko'radi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining qonunga xilof ravishda aylanishining oldini olish choralarni ko'radi.

7-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi

Fuqarolarning, eng avvalo, yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslarning sog'lig'iga, ularning jismoniy, ma'naviy rivojlanishiga, jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizlariga bo'lgan tahdidlarning hamda alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, atrofdagi tamaki tutuni ta'siri bilan bog'liq bo'lgan boshqa tahdidlarning oldini olishga hamda ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi jumlasiga kiradi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, ta'lim tashkilotlari o'z vakolatlari doirasida alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'sirini profilaktika qilish, jamoatchilik ongida alkogol va tamaki mahsulotini iste'mol qilishga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish bo'yicha kompleks ijtimoiy va tashkiliy-huquqiy choralarni amalga oshiradi.

8-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organlar quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishni tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organi (bundan buyon matnda Vakolatli davlat organi deb yuritiladi);

soliq organlari;

bojxona organlari;

iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakolatli davlat organi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilmagan davlat organlari hamda tashkilotlar alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash bo'yicha faoliyatda qonunchilikka muvofiq ishtirok etadi.

9-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va bajarilishini ta'minlaydi;

ijro etuvchi hokimiyat organlarining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishga doir faoliyatni, shuningdek alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosiga doir faoliyatni litsenziyalash tartibini belgilaydi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining ulgurji va chakana savdosi tartibini belgilaydi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni tasdiqlaydi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini tamg'alash, shu jumladan aksiz markalari va raqamli identifikatsiya vositalari bilan tamg'alash tartibini belgilaydi va tasdiqlaydi, alkogol va tamaki mahsulotlariga aksiz markalari namunalarini tasdiqlaydi;

alkogol mahsulotining idishi yorlig'iga yoki tamaki mahsulotining hamda tamakini va nikotinni iste'mol qilish moslamalarining iste'mol o'roviga (qutisiga) joylashtiriladigan tibbiy ogohlantirishlar namunalarini tasdiqlaydi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining aylanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi, shuningdek bunday nazoratni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zarari to'g'risidagi axborotni aholi, eng avvalo, yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslar o'rtasida tarqatishga doir choralarni amalga oshiradi;

alkogol va tamaki mahsulotlariga, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalariga doir majburiy talablarni belgilashga taalluqli bo'lgan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ishlarni tashkil etishda va ularni bajarishda ishtirok etadi;

fuqarolar sog'lig'ini alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siridan himoya qilish bilan bog'liq profilaktika ishlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari yuzasidan nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

alkogolga va nikotinga qaramlikni tashxislash hamda davolash sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqadi, ularga tibbiyot tashkilotlari tomonidan rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

alkogol va tamaki mahsulotlari tarkibidagi inson hayoti hamda sog'lig'i uchun zararli bo'lgan moddalar miqdorining yo'l qo'yiladigan eng yuqori darajalarini belgilaydi;

alkogol mahsuloti idishining yorlig'iga yoki tamaki mahsulotining hamda tamakini va nikotinni iste'mol qilish moslamalarining iste'mol o'roviga (qutisiga) joylashtiriladigan tibbiy ogohlantirishlarning namunalarini ishlab chiqadi;

alkogolga yoki nikotinga qaramlikdan aziyat chekayotgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatilishini ta'minlaydi, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan surunkali kasalliklar hamda o'lim holatlarining monitoringini amalga oshiradi;

fuqarolar, ayniqsa, yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslar o'rtasida alkogol va tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishini kamaytirish, ma'rifiy, tibbiy-sanitariya ishlarining ta'sirchanligini oshirish choralari hamda jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan boshqa ijtimoiy, tashkiliy-huquqiy choralarni o'z ichiga oluvchi samarali profilaktika tizimining yaratilishini va ishlashini ta'minlaydi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklashga qaratilgan tadbirlarning ro'yobga chiqarilishi monitoringini hamda ushbu tadbirlarning samaradorligini baholashni amalga oshiradi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi;

alkogolga yoki nikotinga qaramlikning profilaktikasi hamda uni davolash bilan shug'ullanadigan mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi masalalari bo'yicha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish sabablari va oqibatlarini, alkogolga yoki nikotinga qaramlikning profilaktikasi, uni tashxislash va davolash usullarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishini tashkil etadi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishi ko'lamlariga doir sanitariya-epidemiologik tadqiqotlarni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

11-modda. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

jamoat joylarida alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish, alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining qonunga xilof ravishda aylanishi bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

jamoat joylarida alkogol va tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishi, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanilishi, alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining qonunga xilof ravishda aylanishi holatlari yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi;

boshqa davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikda yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslarning alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishga jalb etilishiga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12-modda. Vakolatli davlat organining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi vakolatlari

Vakolatli davlat organi:

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishga doir faoliyatni, shuningdek alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosiga doir faoliyatni litsenziyalashni amalga oshiradi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ularning aylanishi hajmlarining monitoringini, shu jumladan zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish va rivojlantirish orqali amalga oshiradi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga, shuningdek ularni ishlab chiqarishda qo'llaniladigan xomashyo va qo'shimcha materiallar sifatiga qo'yiladigan talablarga rioya etilishini nazorat qiladi.

Vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

13-modda. Soliq organlarining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi vakolatlari

Soliq organlari:

alkogol va tamaki mahsulotlarining aylanishi bilan bog'liq soliqlar va yig'implarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

savdo obyektlari hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol va tamaki mahsulotlari, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari bilan savdo qilish va ularni realizatsiya qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

savdo obyektlari hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol va tamaki mahsulotlari, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari bilan savdo qilish va ularni realizatsiya qilish qoidalarining buzilishi holatlari yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi;

savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining qonunga xilof ravishda aylanishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi.

Soliq organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi vakolatlari

Bojxona organlari:

alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining aylanishi jarayonida bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali qonunga xilof ravishda olib o'tilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali qonunga xilof ravishda olib o'tilishining oldini olish, aniqlash va unga chek qo'yish maqsadida xorijiy davlatlarning vakolatli organlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va ma'lumotlar almashadi.

Bojxona organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

15-modda. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakolatli davlat organining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi vakolatlari

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakolatli davlat organi:

alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining qonunga xilof ravishda aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha vakolatli davlat organlari bilan hamkorlik qiladi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini reklama qilishga, ularni sotishni rag'batlantirishga va ularga homiylik qilishga doir cheklovga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarining profilaktikasiga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

16-modda. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti:

alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining qonunga xilof ravishda aylanishini kompleks tahlil qiladi, alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining qonunga xilof ravishda aylanishining turli sxemalarini, kanallarini aniqlaydi, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir choralarni amalga oshiradi;

qalbakilashtirilgan alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining aylanishi bilan bog'liq g'ayriqonuniy harakatlarga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshiradi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining qonunga xilof ravishda aylanishiga qarshi kurashish yuzasidan chet davlatlarning vakolatli organlari, xalqaro ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda axborot almashadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

17-modda. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi:

alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqishni amalga oshiradi;

davlat organlari tomonidan ishlab chiqilgan alkogol va tamaki mahsulotlari, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari uchun texnik reglamentlarni ekspertizadan o'tkazadi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro va davlatlararo standartlarga muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

18-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi hududiy dasturlarning ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va bajarilishini ta'minlaydi;

aholi, eng avvalo, yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga hamda alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zarari to'g'risidagi bilimlarni tarqatishga qaratilgan profilaktika tadbirlari amalga oshirilishini ta'minlaydi;

tegishli hududda alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonunchilik talablarining ijro etilishini ta'minlaydi;

fuqarolarning sog'lig'ini alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy ta'siridan himoya qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish masalalari yuzasidan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikni ta'minlaydi;

alkogolga yoki nikotinga qaram bo'lib qolgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordamini moliyaviy, moddiy-texnik, tashkiliy jihatdan ta'minlash masalalarini hal etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

19-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash bo'yicha tadbirlarda ishtirok etishi

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'z vakolatlari doirasida:

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat dasturlarining, hududiy va boshqa dasturlarning bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

aholi, eng avvalo, yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga hamda alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zarari to'g'risidagi bilimlarni tarqatishga qaratilgan profilaktika tadbirlarini amalga oshiradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

20-modda. Fuqarolarning alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etishi

Fuqarolar:

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi davlat dasturlarining, hududiy va boshqa dasturlarning bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

alkogolsiz va tamakisiz muhitni, atrofdagi tamaki tutuni ta'siridan hamda alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish oqibatlaridan fuqarolarning sog'lig'i saqlanishini ta'minlash yuzasidan davlat organlariga hamda mahalliy davlat hokimiyati organlariga takliflar kiritadi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonunchilikning boshqa shaxslar tomonidan buzilishi natijasida o'z sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash talabi bilan murojaat qiladi;

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirishda ishtirok etadi.

Fuqarolarga ularning:

atrofdagi tamaki tutunidan va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish chog'ida ajralib chiqadigan moddalardan holi bo'lgan qulay hayot faoliyati muhitiga;

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonunchilikning boshqa shaxslar tomonidan buzilishi oqibatida o'z hayotiga, sog'lig'iga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplanishiga bo'lgan huquqi kafolatlanadi.

Fuqarolar:

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonunchilikka rioya etishi;

bolalarda alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi, shuningdek ularning alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish jarayoniga jalb etilishiga yo'l qo'yilmaslik to'g'risida qayg'urishi;

boshqa fuqarolarning atrofdagi tamaki tutunidan va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish chog'ida ajralib chiqadigan moddalardan xoli bo'lgan qulay hayot faoliyati muhitiga bo'lgan huquqlarining buzilishiga olib keladigan harakatlarni amalga oshirmasligi shart.

3-bob. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklashga doir choralar

21-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini realizatsiya qilishga doir cheklovlar

Alkohol va tamaki mahsulotlarining, shuningdek tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining:

yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslarga;

yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslar tomonidan;

sotuvchining bevosita ishtirokisiz, shu jumladan savdo avtomatlari, boshqa elektron yoki mexanik qurilmalar vositasida;

o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish tokchalaridan;

elektron tijorat shaklida, shu jumladan har qanday yo'l bilan oxirgi iste'molchilarga yetkazish yordamida (bundan ko'piklanadigan va tabiiy vinolar mustasno);

sayyor (qo'lda, lotoklarda, savatchalarda, qo'l aravachalarida) savdo qilish yo'li bilan;

ko'chmas savdo obyektlaridan tashqarida;

dorixonalarda;

bolalarga mo'ljallangan tovarlar realizatsiya qilinadigan xonalarda;

bolalar o'yinchoqlariga, konfetlarga yoki bolalar uchun mo'ljallangan boshqa tovarlarga o'xshatib ishlangan bo'lsa;

sog'liqni saqlash tizimi tashkilotlari, ta'lim tashkilotlari, madaniyat muassasalari, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlari, sanatoriy hamda tibbiy-ijtimoiy muassasalar hududlarida;

ta'lim, sport va diniy tashkilotlar hududidan to'g'ri chiziq bo'ylab yuz metrdan kam masofada joylashgan savdo obyektlarida, bundan savdo obyekti umumiy savdo maydoni ming kvadrat metrdan ortiq bo'lgan savdo majmualarining (bozorlarning) hududida va yarmarka pavilonlarida joylashgan hollar mustasno;

yaroqlilik muddati o'tganda;

mahsulot sifatini tasdiqlovchi tegishli hujjatlarsiz;

alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini saqlash va realizatsiya qilishga doir sanitariya normalari hamda qoidalariga mos kelmaydigan xonalar va joylarda;

belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanmaganda — aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan alkohol va tamaki mahsulotlariga nisbatan;

qalbaki aksiz markalari bilan tamg'alanganda;

ularning ishlab chiqaruvchisini aniqlash imkonini bermaydigan tarzda aniq tamg'alanmaganda;

belgilangan tartibda raqamli identifikatsiya vositalari bilan tamg'alanmaganda;

ularni ishlab chiqarish uchun litsenziyaga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan ishlab chiqarilganda — litsenziyalanadigan alkohol va tamaki mahsulotlariga nisbatan;

alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini realizatsiya qilish huquqiga ega bo'lmagan yoki ularni qonunchilikni buzgan holda sotgan yetkazib beruvchidan sotib olinganda;

alkogol mahsulotining idishi yorlig'ida yoki tamaki mahsulotining hamda tamakini va nikotinni iste'mol qilish moslamalarining iste'mol o'rovida (qutisida) tibbiy ogohlantirish bo'lmaganda;

agar tamaki mahsulotining iste'mol o'rovida (qutisida) yigirma donadan kam sigareta bo'lsa — sigaretalarga nisbatan;

tamaki mahsuloti va tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari bo'lmagan boshqa tovarlar bilan bir to'plamda — tamaki mahsulotiga va tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalariga nisbatan;

iste'mol o'rovisiz (qutisiz, bloksiz) — tamaki mahsulotiga va tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalariga nisbatan;

donalab yoki ochilgan (yaxlitligi buzilgan) iste'mol o'rovida — (qutisida) sigaretalar va qizdiriladigan tamaki mahsulotiga nisbatan;

temir yo'l vokzallarining, avtovokzallarning, aeroportlarning, daryo bandargohlarining, metropoliten stansiyalarining hududlarida va xonalarida (bundan boj olinmaydigan savdo do'konlari

mustasno) — tamaki mahsulotlariga va tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalariga nisbatan;

eng kam ulgurji va chakana narxlardan past narxlarda — alkogol mahsulotlariga nisbatan (bundan pivo mustasno);

to'liq polietilen, polistirol va boshqa polimer materialdan tayyorlangan iste'mol idishida — alkogol mahsulotiga nisbatan (bundan pivo mustasno);

yorliqsiz, iflos (ichi yoki tashqarisi), yaqqol siniq belgilari bo'lgan (bo'g'zi singan, yorilgan), tiqini buzilgan, umumiy ko'rinishi xiralashgan, yot qo'shimchalari, cho'kmalari bo'lgan butilkalarda — alkogol mahsulotiga nisbatan (bundan kolleksiya qilinadigan vino mahsulotlari mustasno);

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga mos kelmaganda realizatsiya qilinishi taqiqlanadi.

Alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini realizatsiya qilishni bevosita amalga oshirayotgan shaxs yigirma bir yoshdan kichik ko'ringan xaridordan uning shaxsi va yoshini tasdiqlovchi hujjatini ko'rsatishni talab qilishi, hujjat mavjud bo'lmagan taqdirda esa alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining realizatsiya qilinishini rad etishi shart.

22-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlari, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari realizatsiya qilinadigan joylardagi ogohlantirishlar

Alkogol va tamaki mahsulotlari, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari realizatsiya qilinadigan joylarda ularni yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslarga realizatsiya qilish taqiqlanganligi haqidagi ogohlantiruvchi yozuv yoki belgi, shuningdek tibbiy ogohlantirish joylashtirilgan bo'lishi kerak.

23-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining reklamasi

Alkogol va tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining reklamasi bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi **Qonuni** bilan tartibga solinadi.

24-modda. Jamoat joylarida alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni, shuningdek tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanishni taqiqlash

Alkogol mahsulotlarini ish joylarida, ko'chalarda, stadionlarda, xiyobonlarda, bog'larda, barcha turdagi jamoat transportida va boshqa jamoat joylarida iste'mol qilish taqiqlanadi. Mazkur qoida savdo va xizmat ko'rsatish obyektlariga, shu jumladan alkogol mahsulotlari quyib realizatsiya qilish ruxsat berilgan umumiy ovqatlanish korxonalariga, shuningdek to'y, yubiley va boshqa tantanalar hamda marosimlar o'tkaziladigan joylarga tatbiq etilmaydi.

Jamoat joylarida, shu jumladan quyidagi joylarda tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish va tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish taqiqlanadi:

savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida, shu jumladan umumiy ovqatlanish korxonalarida;

kinoteatrlarda, teatrlarda, sirkalarda, konsert, ko'rik va ko'rgazma zallarida hamda ommaviy dam olish uchun mo'ljallangan boshqa yopiq inshootlarda;

klublarda, diskotekalarda, kompyuter zallarida, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar (bo'sh vaqt o'tkaziladigan) joylarda;

muzeylarda, axborot-kutubxona muassasalarida va ma'ruzaxonalarda;

mahalliy va uzoqqa qatnaydigan poyezdlarda, daryo kemalarida, avtobuslarda, metropoliten vagonlarida, taksida, shahar elektr transportida, havo kemalarida, shuningdek jamoat transportining boshqa turlarida;

yer osti o'tish joylarida, metropoliten stansiyalarida, transport bekatlarida va avtotransport vositalari vaqtinchalik saqlanadigan yopiq joylarda;

temir yo‘l vokzallari, avtovokzallar, aeroportlar, daryo bandargohlari, metropoliten stansiyalariga kirish joyidan kamida besh metr masofada bo‘lgan ochiq havodagi joylarda;

yong‘in xavfi mavjud bo‘lgan joylarda, shu jumladan avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalarida;

aeroportlarning, temir yo‘l va avtomobil vokzallarining, daryo bandargohlarining binolarida;

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va davlat organlarining binolarida, shu jumladan ish joyida, yo‘laklarda, liftlarda, zinapoyalarda, vestibyullarda, hojatxonalarda, dam olish xonalarida, ularga tutash xonalarda va xodim tomonidan mehnat faoliyati vaqtida foydalaniladigan shunga o‘xshash boshqa joylarda;

sog‘liqni saqlash tizimi tashkilotlarida, dorixonalarda, ta‘lim tashkilotlarida, madaniyat muassasalarida, jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlarida, sanatoriy muassasalarida va tibbiy-ijtimoiy muassasalarda;

uy-joy xizmatlari, mehmonxona xizmatlari, vaqtinchalik joylashtirish va (yoki) vaqtinchalik yashab turishni ta‘minlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan xonalarda;

ko‘p kvartirali uylarning yo‘laklari va liftlarida, shuningdek bolalar va sport maydonchalarida, shu jumladan uylarga tutashgan hududda joylashgan maydonchalarida;

xiyobonlarda, bog‘larda, plyajlarda.

Ushbu moddaning **ikkinchi qismida** sanab o‘tilgan jamoat joylarida joylashgan xonalarni ushbu xonalarda keyinchalik tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilish va tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalaridan foydalanish uchun berish taqiqlanadi.

Ushbu moddaning **ikkinchi qismida** sanab o‘tilgan jamoat joylarida tamaki mahsulotlarini va tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalarini ushbu joylarda keyinchalik iste‘mol qilish (ulardan foydalanish) uchun berish taqiqlanadi.

Ushbu moddaning **ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarida** belgilangan taqiqlar tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilish va tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalaridan foydalanishga oid qismi bo‘yicha — tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilish va chilim chekish uchun maxsus ajratilgan joylarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

25-modda. Tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilish va chilim chekish uchun maxsus ajratilgan joylarga doir talablar

Tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilish uchun maxsus ajratilgan joylar:

binolar va inshootlardan tashqaridagi ochiq havoda;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga mos keladigan va ventilatsiya tizimlari bilan jihozlangan, ushbu Qonun 24-moddasining **ikkinchi qismida** sanab o‘tilgan jamoat joylariga taalluqli bo‘lmagan alohida ajratilgan binolar, inshootlar va obyektlarda;

aeroportlarda reysga ro‘yxatdan o‘tgan yo‘lovchilar turishi uchun mo‘ljallangan hududlarda hamda tranzit bo‘yicha o‘tayotgan yo‘lovchilar uchun mo‘ljallangan hududlarda tashkil etilgan, ventilatsiya tizimlari bilan jihozlangan va tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilish jarayonini boshqa xonalardan kuzatish imkoniyati istisno etiladigan maxsus ajratilgan alohida xonalarda;

poyezdlarning ishlash uchun mo‘ljallanmagan tamburlarida;

daryo kemalari palubalarining orqa tarafida tashkil etilishi mumkin.

Chilim chekish uchun maxsus ajratilgan joylar faqat chilim berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatiladigan, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq bo‘lgan va ventilatsiya tizimlari bilan jihozlangan alohida ajratilgan binolar, inshootlar va obyektlarda tashkil etilishi mumkin.

Tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilish uchun maxsus ajratilgan joylarga tamaki mahsulotlarining qoldiqlari uchun yonmaydigan axlatdonlar, shuningdek bunday joylar qayerdaligi haqida axborot beruvchi ko‘rsatkichlar o‘rnatiladi.

Tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilish va chilim chekish uchun maxsus ajratilgan joylarda tibbiy ogohlantirishlar joylashtirilgan bo‘lishi kerak.

26-modda. Jamoat joylarida alkogol va tamaki mahsulotlarining iste‘mol qilinishini, tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalaridan foydalanishni cheklash bo‘yicha

chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan shaxslarning majburiyatlari

Jamoat joylarida alkogol va tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanishni cheklash bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan shaxslar:

jamoat joylarida alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlashi;

alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilayotgan, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanayotgan shaxslarni ushbu Qonun 24-moddasining **birinchi** va **ikkinchi qismlarida** nazarda tutilgan jamoat joylarida ular iste'mol qilinishiga (foydalanilmasligiga) yo'l qo'yilmasligi haqida ogohlantirishi, huquqbuzarlik davom ettirilgan taqdirda esa ichki ishlar organlariga xabar berishi;

hammaga ko'rinadigan joylarda, shu jumladan binolar (xonalar) hududiga kirish joylariga va boshqa obyektlarga, shuningdek transport vositalarida jamoat joylarida alkogol va tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishiga, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi haqidagi ogohlantiruvchi lavhalarni (belgilarni) joylashtirishi shart.

Jamoat joylarida alkogol va tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanishni cheklash bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

27-modda. Aholini alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zarari, shuningdek ularning salbiy oqibatlari to'g'risida ma'rifatli qilish va xabardor etish

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi organlar, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari aholini, eng avvalo, yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslarni alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zarari to'g'risida ma'rifatli qilishga doir choralarni amalga oshiradi, ushbu choralari:

alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning salbiy tibbiy va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari;

alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni to'xtatishning afzalliklari;

ushbu Qonun maqsadidan kelib chiqqan holda tamaki sanoatining strategiyasi va harakatlari to'g'risidagi axborotni taqdim etishni o'z ichiga oladi.

Aholini alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zarari va ularning salbiy oqibatlari to'g'risida ma'rifatli qilish:

oilada, ta'lim tashkilotlarida tarbiyalash va o'qitish jarayonida, tibbiyot tashkilotlarida, shuningdek ish beruvchilar tomonidan ish joylarida;

ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiyalar tarmoqlarida, Internet jahon axborot tarmog'ida, shu jumladan alkogol va tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarini namoyish qilgan holda axborot kampaniyalarini o'tkazish, "tezkor aloqa" telefonlari faoliyatini tashkil etish, shuningdek boshqa usullar orqali amalga oshiriladi.

Alkogol va tamaki mahsulotlari, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari, ularni iste'mol qilish va ulardan foydalanish jarayoni namoyish etiladigan tele-, kino- va videofilmlarni, tele-, video- va kinoxronika dasturlarini uzatuvchi yoki namoyish qiluvchi tashkilotlar bunday asarlarni uzatish va namoyish qilishdan oldin yoki ularni uzatish va namoyish qilish vaqtida ushbu mahsulotlarni iste'mol qilish va moslamalardan foydalanish xavfi to'g'risidagi axborotni joylashtirishi kerak.

Davlat organlari alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishni hamda realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi shaxslar bilan ushbu Qonunning tartibga solish predmeti bo'lgan masalalar yuzasidan o'z hamkorligi to'g'risida jamoatchilikni majburiy tartibda xabardor qiladi.

28-modda. Alkogolga yoki nikotinga qaram bo'lib qolgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish

Alkogolga yoki nikotinga qaram bo‘lib qolgan hamda tibbiyot tashkilotlariga murojaat etgan shaxslarga alkogol va tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilishni to‘xtatishga, alkogolga yoki nikotinga qaramlikni davolashga qaratilgan tibbiy-sanitariya yordami, shuningdek ularni reabilitatsiya qilish yuzasidan yordam ko‘rsatiladi.

Alkogolga yoki nikotinga qaram bo‘lib qolgan shaxslarga tibbiy-sanitariya yordami, shuningdek ularni reabilitatsiya qilish bo‘yicha yordam qonunchilikka muvofiq ko‘rsatiladi.

4-bob. Alkogol mahsulotlarining aylanishini tartibga solish

29-modda. Alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish

Alkogol mahsulotlarini (bundan tabiiy vinolar va pivo mustasno) ishlab chiqarishga doir faoliyat O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan tegishli litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Alkogol mahsulotlarini chet elda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat xomashyosidan rektifikatsiya qilib olingan etil spirtidan foydalangan holda ishlab chiqarish taqiqlanadi.

Pivo ishlab chiqarishga doir faoliyat Vakolatli davlat organiga mazkur faoliyat boshlanishi to‘g‘risida xabarnoma yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish tartibi, shuningdek alkogol mahsulotlari tarkibidagi inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zararli bo‘lgan moddalarning yo‘l qo‘yiladigan eng yuqori darajalari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

30-modda. Alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning majburiyatlari

Alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar:

ishlab chiqarilgan alkogol mahsulotlarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ko‘rsatkichlari va talablariga muvofiqligini;

alkogol mahsulotlarining har bir turi bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgan texnologik yo‘riqnomalarning mavjudligini;

zarur uskunalar, asboblari, kimyoviy reaktivlar va sinov usullarini belgilab beruvchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan ta‘minlangan, ko‘rsatkichlarning barcha zarur fizik-kimyoviy, mikrobiologik va boshqa tahlillarini o‘tkazish imkonini beradigan ishlab chiqarish laboratoriyalarining mavjudligini;

alkogol mahsulotining asosiy ishlab chiqarish uskunalarini hamda uning mulkdorlarini Vakolatli davlat organida majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish;

iste‘mol etil spirtining va alkogol mahsulotining organoleptik xossalarini aniqlash bo‘yicha degustatsiya komissiyasiga ishlab chiqarilayotgan mahsulot namunalarining ishlab chiqarilayotgan mahsulot texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi yuzasidan tekshirish uchun qonunchilikda belgilangan muddatlarda taqdim etilishini;

alkogol mahsulotlarini raqamli tamg‘alash va kuzatishning axborot tizimlari, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini hamda aylanishini hisobga olishning axborot tizimlari joriy etilishini va ulardan foydalanilishini;

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste‘mol qilinishini cheklash bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organlarning so‘rovlariga binoan ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan alkogol mahsulotlari hajmlari, shuningdek ularni sotishdan tushgan daromad miqdori haqida axborot taqdim etilishini;

soliq organlarining axborot tizimiga integratsiya qilingan elektron hisobvaraqlar-fakturalardan foydalanilishini;

mavjud yillik ishlab chiqarish quvvatlaridan qonunchilikda belgilangan hajmlarda foydalanilishini;

barcha alkogol mahsulotlarini quyish liniyalarida yig‘ma hisobga olish ma‘lumotlari ko‘rsatkichlarini himoyalash vositasiga ega bo‘lgan tayyor mahsulotlarni elektron hisoblagichlarning mavjud bo‘lishini;

ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni alkogol mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste‘mol qilinishini cheklash bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organlarga avtomatlashtirilgan tarzda uzatilishini ta‘minlaydigan o‘lchov asboblari o‘rnatilishini;

alkogol mahsulotlarining aksiz markalari va raqamli identifikatsiya vositalari bilan belgilangan tartibda tamg'alanishini ta'minlashi shart.

Alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

31-modda. Alkogol mahsulotlarining o'ralishiga va tamg'alanishiga doir talablar

Alkogol mahsulotlarining o'ralishiga va tamg'alanishiga doir talablar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilanadi.

Alkogol mahsulotlarining o'rovi ularning muomalasi jarayonida xavfsizligini va alkogol mahsulotlarining butun yaroqlilik muddati mobaynida (vinochilik mahsulotlari uchun — ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilanadigan saqlash muddati mobaynida) iste'mol xossalari saqlanishini ta'minlashi kerak.

Alkogol mahsulotlarining tamg'asi har bitta o'rovning o'qish uchun qulay joyiga (yorlig'iga, kontryorlig'iga, kolyeretkasiga va boshqa joylariga) bosiladi.

Alkogol mahsulotlarining (bundan tabiiy va ko'piklanadigan vinolar mustasno) iste'mol idishida yorliq asosiy yuzasining kamida qirq foizini egallaydigan matnli yozuv va (yoki) rasm tarzidagi tibbiy ogohlantirish bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga olib kiriladigan alkogol mahsulotlari (bundan pivo, tabiiy va ko'piklanadigan vino mustasno) belgilangan namunadagi aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

32-modda. Alkogol mahsulotlarining ulgurji va chakana savdosi

Alkogol mahsulotlarining (bundan tabiiy va ko'piklanadigan vinolar mustasno) ulgurji savdosiga doir faoliyat tegishli litsenziya asosida yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Alkogol mahsulotlarining chakana savdosiga doir faoliyat va alkogol mahsulotlarini umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan realizatsiya qilishga doir faoliyat yuridik shaxslar tomonidan Vakolatli davlat organiga mazkur faoliyat boshlanishi to'g'risida xabarnoma yuborish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Alkogol mahsulotlarining chakana savdosiga doir faoliyat faqat alkogol mahsulotlarini saqlash va realizatsiya qilishning tegishli sanitariya normalari hamda qoidalariga mos keladigan omborxonalari va asbob-uskunolari bo'lgan, shaharlarda — kamida yigirma besh kvadrat metrli, qishloq joylarda — kamida o'n besh kvadrat metrli (faqat alkogol mahsulotlari sotish uchun mo'ljallangan va alohida kirish joyiga ega) savdo zali, uzoq tog'li joylarda — alohida savdo seksiyasi bo'lgan savdo obyektlarida amalga oshirilishi mumkin.

Alkogol mahsulotlarini quyib realizatsiya qilishni amalga oshiradigan umumiy ovqatlanish korxonalari tegishli savdo uskunolari, davlat tekshiruvidan o'tgan o'lchov menzurkalari va o'lchovli krujkalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Alkogol mahsulotlarining chakana savdosi bo'yicha faoliyat fiskal xotiraga ega onlayn nazorat-kassa mashinalaridan va (yoki) virtual kassa tizimlaridan, shuningdek bank plastik kartochkalaridan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallaridan majburiy foydalanish sharti bilan amalga oshiriladi.

Alkogol mahsulotlarining chakana savdosiga doir faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar aholi bilan hisob-kitoblarni onlayn tarzda fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va (yoki) virtual kassa tizimlarini, shuningdek bank plastik kartalaridan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallarini qo'llagan holda amalga oshiradi.

Savdo obyektlari tomonidan alkogol mahsulotlarining chakana savdosi vaqti Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilanadi.

33-modda. Alkogol mahsulotlarini import qilish

O'zbekiston Respublikasiga import qilinadigan alkogol mahsulotlari sifati bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Alkogol mahsulotlarini import qilish bojxona to'lovlarini undirish va iqtisodiy siyosat choralari qo'llash yo'li bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) to'liq polietilendan, polistiroidan va boshqa polimer materialdan tayyorlangan polimer iste'mol idishlarida olib kirish taqiqlanadi.

5-bob. Tamaki mahsulotlarining aylanishini tartibga solish

34-modda. Tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish

Tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishga doir faoliyat yuridik shaxslar tomonidan tegishli litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishda:

tamaki mahsuloti afzalliklarga ega yoki sog'liq uchun xavf-xatarlarni kamaytiradi degan tasavvur hosil qiladigan;

g'ayrat va (yoki) hayotiy kuch (shu jumladan kofein, taurin, guarana) bilan bog'lanadigan;

ajralib chiqadigan tamaki tutuniga rang berish xossalari ega bo'lgan;

yonmaydigan shakldagi kanserogen, mutagen yoki reproduktiv toksik xossalarga ega bo'lgan moddalardan foydalanish taqiqlanadi.

Bir dona sigareta (filtrli yoki filtrsiz) yoki qizdiriladigan tamaki mahsuloti aerosolida (bug'ida, tutunida) nikotin miqdori bir milligramdan oshmasligi kerak.

Bir dona filtrli sigareta tutunida uglerod monooksidining miqdori o'n milligramdan oshmasligi kerak.

Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlikda yoki nikotin eritmasida (shu jumladan nikotin yetkazib berishning elektron tizimlari uchun nikotinli suyuqliklarda, shuningdek elektron sigaretalarning nikotin suyuqliklarida) nikotin konsentratsiyasi bir millilitrda yigirma milligramdan oshmasligi kerak.

Tamaki mahsuloti tarkibidagi inson hayoti va sog'lig'i uchun zararli moddalar miqdorining mumkin bo'lgan eng yuqori darajalari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

35-modda. Tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning majburiyatlari

Tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar:

ishlab chiqarilgan tamaki mahsulotlarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini;

tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning to'liq texnologik sikliga rioya etilishini, zarur ishlab chiqarish xonalari, texnologik uskunalari va ashyolarning mavjudligini;

tamaki mahsulotlarining har bir turi bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan texnologik yo'riqnomalarning mavjudligini;

zarur uskunalari, asboblari, kimyoviy reaktivlari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan ta'minlangan ishlab chiqarish laboratoriyalarining mavjudligini;

Vakolatli davlat organiga belgilangan muddatlarda ishlab chiqarilayotgan tamaki mahsulotlari tarkibida nikotin hamda inson hayoti va sog'lig'i uchun zararli bo'lgan boshqa moddalar miqdorining yo'l qo'yiladigan eng yuqori darajalariga doir laboratoriya tadqiqotlari natijalari haqida hisobot taqdim etilishini;

tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga javob beradigan hamda qonunchilikda belgilangan tartibda berilgan tegishli sertifikatlar ega bo'lgan tamaki xomashyosidan foydalanilishini;

tamaki mahsulotlarini raqamli tamg'lash va kuzatishning axborot tizimlari, tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda aylanishi hajmlarini hisobga olishning axborot tizimlari joriy etilishini va ulardan foydalanilishini;

alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organlarning so'rovlariga ko'ra ishlab chiqarilgan va

realizatsiya qilingan tamaki mahsulotlari hajmlari, shuningdek uni sotishdan tushgan daromad miqdori haqida axborot taqdim etilishini;

soliq organlarining axborot tizimiga integratsiya qilingan elektron hisobvara-q-fakturalardan foydalanilishini;

ishlab chiqarish ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organlarga avtomatlashtirilgan tarzda uzatilishini ta'minlaydigan o'lchov asboblari o'rnatilishini;

tamaki mahsulotlarining belgilangan tartibda aksiz markalari va raqamli identifikatsiya vositalari bilan tamg'alanishini ta'minlashi shart.

Tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

36-modda. Tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining o'ralishiga va tamg'alanishiga doir talablar

Tamaki mahsulotlarining o'ralishiga (qutisiga) hamda tamg'alanishiga doir talablar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilanadi.

Tamaki mahsulotlarining iste'mol o'rovi (qutisi) butun kafolatli saqlanish muddati mobaynida tamaki mahsulotlarining iste'mol xossalari o'zgarmasligini hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini ta'minlashi kerak.

Tamaki mahsulotlarining iste'mol o'rovida (qutisida) uning old tomonining yuqori qismidagi asosiy yuzasining kamida oltmish besh foizini hamda orqa tomoni asosiy yuzasining kamida oltmish besh foizini egallaydigan, tamaki mahsulotini iste'mol qilish tufayli yuzaga kelgan kasallik oqibatlarini ko'rsatuvchi tasvir va tegishli mazmundagi matn tarzida tibbiy ogohlantirish bo'lishi kerak.

Tamaki mahsulotlarining blokida tamaki mahsuloti bloki gorizontal joylashtirilganda chap qismida old va orqa tomonida hamda vertikal joylashtirilganda yuqori qismida asosiy yuzaning kamida oltmish besh foizini egallaydigan, tamaki mahsulotini iste'mol qilish tufayli yuzaga kelgan kasallik oqibatlarini ko'rsatuvchi tasvir va tegishli mazmundagi matn tarzida tibbiy ogohlantirish bo'lishi kerak.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismida belgilangan talab shaffof polietilen plyonkadan tayyorlangan tamaki mahsulotlarining bloklariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Tamakini va nikotinni iste'mol qilish moslamasining iste'mol o'rovida, bundan chilimning o'rovi mustasno, o'rov asosiy tomonlari yuzasining kamida oltmish besh foizini egallaydigan matnli yozuv va (yoki) rasm ko'rinishidagi tibbiy ogohlantirish bo'lishi kerak.

Chilim suvdonida uning yuzasining kamida oltmish besh foizini egallaydigan, tamaki mahsulotini iste'mol qilish tufayli yuzaga kelgan kasallik oqibatlarini ko'rsatuvchi tasvir va tegishli mazmundagi matn tarzida tibbiy ogohlantirish bo'lishi kerak.

Tamaki mahsulotlarining va tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining iste'mol o'rovida (qutisida):

mazkur mahsulot boshqa tamaki mahsulotlaridan zararsizroq ekanligi haqida bevosita yoki bilvosita tasavvur hosil qiladigan har qanday atamalarni, ta'riflarni, belgilarni, ramzlarni yoki boshqa ishoralarni;

bevosita yoki bilvosita tamaki mahsulotlarining jozibadorligini oshiruvchi ta'm, hid, xushbo'y hid beruvchi qo'shimchalar va boshqa moddalar borligini yoxud ularning mavjud emasligini ko'rsatuvchi har qanday atamalarni, ta'riflarni, belgilarni, ramzlarni yoki boshqa ishoralarni;

oziq-ovqat mahsulotlarining, dori vositalarining, dorivor o'simliklarning tasvirlarini, shuningdek tamaki mahsulotining oziq-ovqat mahsuloti, dori vositasi yoki dorivor o'simlik bilan bevosita yoki bilvosita o'zaro bog'liqligi haqida tasavvur hosil qiladigan so'zlarni yoki so'z birikmalarini;

tamaki mahsulotlarining qancha tez biologik parchalanishi yoki atrof tabiiy muhitga boshqacha tarzda maqbul ta'sir ko'rsatishi haqida bevosita yoki bilvosita tasavvur hosil qiladigan axborotni;

tamaki mahsulotlarining rag‘batlantiruvchi, tetiklashtiruvchi, shifobaxsh, yoshartiruvchi yoki boshqa ijobiy samaraga ega ekanligi haqida bevosita yoki bilvosita tasavvur hosil qiladigan axborotni;

tamaki mahsulotlarining zararliligi borasida iste‘molchini bevosita yoki bilvosita chalg‘itadigan axborotni, shu jumladan “qatron miqdori kam”, “yengil”, “juda yengil”, “yumshoq”, “ekstra”, “ultra”, “ingichka” kabi so‘zlarni yoxud bunday so‘zlar bilan bir o‘zakli so‘zlarni, bunday so‘zlarning chet tillardagi analoglarini, shuningdek bunday so‘zlarning chet tillardan tarjima qilinadigan analoglarini joylashtirish taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga olib kiriladigan tamaki mahsulotlari belgilangan namunadagi aksiz markalari bilan tamg‘alanishi shart.

37-modda. Tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalarining aylanishi

Tarkibidagi nikotin hamda inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zararli bo‘lgan boshqa moddalar miqdorining yo‘l qo‘yiladigan eng yuqori darajalaridan oshadigan tamaki mahsulotlarining, shuningdek sanitariya-epidemiologiya talablari belgilanmagan tamaki mahsulotlarining aylanishi taqiqlanadi.

Quyidagilarni:

chekilmaydigan tamaki mahsulotlarini, shu jumladan tarkibida nikotin mavjud bo‘lgan chekilmaydigan mahsulotlarni;

tarkibida mahsulotning jozibadorligini oshirishga qaratilgan moddalar yoki nikotinga qaramlikni oshiradigan qo‘shimchalar mavjud bo‘lgan nikotinli va nikotinsiz suyuqliklarni, nikotinli va nikotinsiz suyuqliklari bo‘lgan tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalarini, shuningdek elektron sigaretalarni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (shu jumladan xalqaro pochta va kuryerlik jo‘natmalari orqali olib kirish) hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilish taqiqlanadi.

Ushbu moddaning **ikkinchi qismida** belgilangan taqiq O‘zbekiston Respublikasi hududida nosvoyni ishlab chiqarishga va realizatsiya qilishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Nikotinli va nikotinsiz suyuqliklarning, nikotinli va nikotinsiz suyuqliklari bo‘lgan tamaki hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalarining va elektron sigaretalarning o‘ziga jalb etuvchanligini oshirishga qaratilgan moddalar, shuningdek nikotinga qaramlikni kuchaytiruvchi qo‘shimchalar ro‘yxati texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Tamaki mahsulotlariga o‘xshatib ishlangan tovarlarni (bundan tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalari mustasno) ishlab chiqarish, olib kirish, sotish va tarqatish taqiqlanadi.

Tamaki mahsulotlarining va tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalarining ulgurji va chakana savdosi qonunchilikka muvofiq yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalarining chakana savdosi faqat tamaki mahsulotlarini va tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalarini saqlash hamda realizatsiya qilishning tegishli sanitariya normalari va qoidalariga mos keladigan omborxonalari hamda uskunalari bo‘lgan ko‘chmas savdo obyektlarida amalga oshirilishi mumkin.

Chakana savdo amalga oshirilayotganda tamaki mahsulotlarini, tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalarini yoyib qo‘yish va ochiq namoyish etish taqiqlanadi.

Chakana savdo uchun taklif etilayotgan tamaki mahsulotlari va tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalari to‘g‘risidagi axborot sotuvchi tomonidan xaridorlar e‘tiboriga savdo zalida sotiladigan tamaki mahsulotlari va tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalari ro‘yxatini joylashtirish orqali yetkaziladi, ro‘yxatning matni oq fonda bir xil o‘lchamdagi qora rangli harflar bilan yoziladi va ro‘yxat alfavit tartibida, sotiladigan tamaki mahsulotlarining va tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalarining narxi ko‘rsatilgan holda, biror-bir grafik tasvirlar va rasmlardan foydalanmasdan tuziladi.

Ko‘chmas savdo obyektlarida tamaki mahsulotlarini va tamakini hamda nikotinni iste‘mol qilish moslamalarini xaridorga namoyish etish uning talabiga ko‘ra sotiladigan tamaki mahsulotlar

va tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari ro'yxati bilan tanishib chiqqanidan keyin amalga oshirilishi mumkin.

Tamaki mahsulotlarining va tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining chakana savdosiga doir faoliyat onlayn tarzda fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va (yoki) virtual kassa tizimlarini, shuningdek bank plastik kartalaridan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallarini albatta qo'llagan holda amalga oshiriladi.

Tamaki mahsulotlari va tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari, shu jumladan import qilingan bunday mahsulotlar va moslamalarning sotuvchisi har bir nomdagi mahsulot bo'yicha tayyorlovchining yoki yetkazib beruvchining imzosi bilan tasdiqlangan, har bir nomdagi mahsulot bo'yicha muvofiqlik sertifikatini mavjudligi haqidagi ma'lumotlar bo'lgan hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazilganlik raqamlari, ushbu sertifikatning amal qilish muddati hamda sertifikatni bergan organ ko'rsatilgan tovar-transport hujjatlariga ega bo'lishi kerak.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

38-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan davlat nazorati

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan davlat nazorati vakolatli organlar tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

39-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklashga doir tadbirlarni moliyalashtirish

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash, ularning aholi sog'lig'iga zararli ta'sirini profilaktika qilishga, uning oldini olishga, ta'sirini kamaytirishga doir tadbirlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

40-modda. Nizolarni hal etish

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

41-modda. Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

42-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 5-oktabrda qabul qilingan "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi O'RQ-302-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011-yil, № 10, 272-modda);

2) O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 2-iyulda qabul qilingan "Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalar chekishni cheklash to'g'risida"gi O'RQ-478-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 7, 423-modda);

3) O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-584-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 11, 792-modda) **11-moddasi**;

4) O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-683-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova) **209 va 253-moddalari**;

5) O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrda qabul qilingan “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-721-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 10, 968-modda) **25-moddasi**.

43-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta‘minlash

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va Adliya vazirligi ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta‘minlasin.

44-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta‘minlasin.

45-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

Ushbu Qonun 36-moddasining **uchinchi — sakkizinchi qismlari**, 37-moddasining **ikkinchi qismi** ushbu Qonun kuchga kirgan kundan e‘tiboran to‘qqiz oy o‘tgach amalga kiritiladi. Bunda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablari ushbu Qonun 36-moddasining **uchinchi — sakkizinchi qismlarida** ko‘rsatilgan talablar amalga kiritilguniga qadar amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2023-yil 24-may,
O‘RQ-844-son

(Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.05.2023-y., 03/23/844/0293-son)